

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS ASPEKTLARI

Abduraxmanov M.X.

p.f.f.d. (PhD), O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Buriyev J.O.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistr

Anotatsiya. Hozirgi vaqtida har bir foydalanuvchi nafaqat zamonaviy kompyuteridan ma'lumotlarni yo'qolishini eshitadi yoki uning qurbaniga aylanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, uning tahdidlariga qarshi turish, favqulodda holatlarning oldini olish uchun maxsus holatlarni tanlab oldik va ularni sinovdan o'tkazdik.

Tayanch so'zlar., *Axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, virus, antivirus, globallashuv, axborot.*

Zamonaviy mutaxassis yetarli darajada kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishi kerak, bu unga nafaqat shaxslararo bevosita o'zaro munosabatlarda, balki raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kengaytirilgan makonda ham kasbiy muammolarni samarali yechishga imkon beradi. Oliy ta'lim muassasasida ta'lif olishi davomida talaba kasbiy muammolarni sinxron, asinxron, guruhli va kichik guruhli aloqa rejimida yechish uchun ommaviy aloqaning turli xil texnologik vositalarini o'zlashtirishi, vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Umuman olganda, zamonaviy talaba bugungi kunda o'zi uchun dolzarb muammolarni hal qilishda turli xil faoliyat sohalarida keng qo'llaniladigan aloqa vositalarini erkin ravishda foydalana olishi va boshqara olishi lozim.[1] O'qitishni kommunikatsion qo'llab-quvvatlash uchun standart, "bepul" tarmoq xizmatlaridan va ixtisoslashtirilgan instrumental muhitdan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Bunda bir-birini to'ldiruvchi

axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yondashuvni yo‘lga qo‘yish mumkin. Xususan, konferensiya suhbatlarni tashkil etish fikr yuritadigan bo‘lsak, odatda ular rasmiy boshlanishdan bir soat oldin tashkillashtiriladi. Nafaqat translyatsiya qilingan videokonferensiyanı, balki interfaol konferensiyanı tashkil qilish uchun tayyor auditoriya kerak bo‘ladi. Qoidaga ko‘ra, videokonferensiya ishtirokchilariga bir necha turdagи mulohazalar taklif etiladi: konferensiya mavzusi bilan bog‘liq savollar bo‘yicha ovoz berish, sharhlar qoldirish, forum, suhbat va elektron pochta. Real vaqt tartibida samarali ishslash mazmunli natijaga erishish uchun uning natijalarini sarhisob qilish kerak.

Har qanday konferensiya yoki onlayn konferensiya forumining asosiy elementi - muayyan masalani muhokama qilish jarayoni va shunga mos ravishda ushbu masala bo‘yicha aniq qarorni ishlab chiqish hisoblanadi. O‘qituvchi munozara usullaridan foydalangan holda bиргаликда guruh yechimini talab qiladigan ta’lim vazifasini ishlab chiqqan bo‘lsa, ta’limiy aloqani o‘rnatishi mumkin. Xususan, ZOOM konferensiyasining har qanday ishtirokchisi muhokama qilinayotgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrini bildirgan xabar yuborishi mumkin. U konferensiya translyatsiya qilinadigan Web-saytda joylashtiriladi va munozaraning barcha ishtirokchilari uchun Link taqdim etiladi.

Ishchi konferensiyalarda odatda oldindan moderatsiya, ya’ni kelgan javoblar va maqolalarni tarqatish moderator ularni ko‘rib chiqib, uning xulosasi asosida amalga oshiradi. Post-moderatsiya - pochta jo‘natmalari avtomatik ravishda amalga oshiriladi, moderator post-fasto, ya’ni belgilangan qoidalarni buzuvchilarga nisbatan tashkiliy xulosalar qiladi. Moderatsiyadan oldingi rejim “past sifatli” materiallarning o‘tishiga to‘sinqilik qiladi, ammo konferensiya samaradorligini jiddiy ravishda pasaytirishi mumkin. Muhokama muayyan muammoni yechishga qaratilishi uchun o‘qituvchi oldindan muhokama talablari va qoidalari belgilashi kerak. Ushbu ma’lumotlar doimiy ravishda saytda joylashtiriladi. O‘qituvchi moderator vazifasini o‘taydi, munozara jarayonini o‘z bayonotlari yordamida ham ishtirokchilar huquqlarini tartibga solishda ham boshqaradi. Muhokama qilinayotgan masalalarni tuzish uchun munozarada bir nechta filiallar bo‘lishi mumkin, ya’ni munozarada bir ishtirokchi qatnashishi mumkin.

Ushbu turdagি texnologiyaning asosiy maqsadi – ta’lim, keyinchalik kasbiy vazifalarни hal qilishda jamiyat a’zolari bilan ma’lumot almashish va ularning fikrlarini hisobga olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Amaliy ishlarning asosiy vazifalaridan biri - talabalarni axborot xavfsizligi va uni ta’minlovchi infratuzilmani har qanday tasodifiy yoki zararli ta’sirlardan saqlashga hamda saqlanishga o’rgatish edi. Axborot xavfsizligi sohasidagi o‘quv jarayonini tashkil etish vazifalari zarar va tahdidlarnini minimallashtirishga erishishdir. Bunda, nafaqat apparat-dasturiy ta’minot tavsifidagi, balki inson omilidagi bunday ta’sirlarni bashorat qilish va oldini olishga ham e’tibor qaratish lozim. Buning uchun esa axborot xavfsizligini ta’minalash vazifasi tizimli ravishda hal qilinishi kerak, ya’ni turli xil himoya vositalari: dasturiy ta’minot, jismoniy, tashkiliy va shu kabilar bir vaqtning o’zida markazlashtirilgan nazorat ostida qo’llanilishi kerak. Ba’zida kompyuter texnologiyalari mutaxassislari tilida aytilganidek, tizim tarkibiy qismlari bir-birining borligi to‘g’risida “bilishi”, o’zaro ta’sir qilishi va tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishi kerak [3].

Kompyuter uskunalarini himoya qilishni istagan har bir individual yoki jamoaviy foydalanuvchi, shubhali faylning kodini antivirus bazasida saqlangan namunalar bilan taqqoslash orqali ma’lum bo’lgan virus dasturlarini aniqlashga imkon beradigan zamonaviy antivirus texnologiyalaridan foydalanishi kerak. Bundan tashqari, yangi yaratilgan virus dasturlarini aniqlash uchun maxsus modellashtirish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Yangi ma’lumotlar olinayotgan ob’ektlarni “zararsizlantirish”, “karantinda” saqlash, xavfli bo’lsa uni bartaraf qilish mumkin. Ammo shunga qaramay, shu narsa ma’lumki, hozirgi paytda hech qanday antivirus dasturi kompyuterga kirib borish qobiliyatiga ega bo’lgan viruslarni barchasini yuz foiz yo‘q qilishga yoki davolashga qodir emas. Shu sababli, axborot xavsizligini ta’minalashga o’rganayotgan yosh mutaxassis ma’lumotlar xavfsizligini ta’minalash sohasida shaxsiy kompyuterga turli xil virus guruhlari ta’sirining imkoniyatlarini bilishi va aniqlay olishi, virusni topish, uni bartaraf qilish, zaxira viruslarni topishga qodir bo’lgan yordamchi dasturlardan foydalanishni bilishi lozim. Virus va uni xurujlariga qarshi kurashish bo‘yicha ijobiy

ko'nikma va malakalarga ega bo'lish - foydalanuvchida dasturiy ta'minotni va texnik vositalari xavfsizligini tashkil qilish, ta'minlash va o'rganish-o'qitish imkonini beradi [2].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, zamonaviy kompyuterlarning deyarli har bir foydalanuvchisi nafaqat o'z kompyuterining axborot resurslaridan to'liq yoki qisman ma'lumotlarning yo'qolishini oldini olishga, balki tarmoqda ham axborot havfsizligi hamda tahdidlarni bartaraf etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахманов М.Х. Талабаларни ахборот хавфсизлигига ўргатища тармоқ ўкув-ахборот ресурсларидан фойдаланиш. СамДУ илмий ахборотномаси. №.6 [57-59]
2. Зима В.М., Молдовян А.А., Молдовян Н.А. Защита компьютерных ресурсов от несанкционированных действий пользователей. - Учеб пособие. - СПб: Издательство ВИКА им. А.Ф. Можайского, 1997. - 189 с.
3. Партика Т.JL, Попов И.И. Информационная безопасность. Учебное пособие для студентов учреждений среднего профессионального образования. 2-е изд. М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2007. - 368 с.